

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UDK: 801

ORCID: 0000-0003-0111-8986

INGLIZ TILIDAGI EVFEMIZMLAR TASNIFI

Baxriddinova Dildora Oktamovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Xorijiy tillar fakulteti,
Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida
katta o‘qituvchisi, dotsent v.b.,
Email: dildora.bahriddinova86@gmail.com

Annotatsiya: Evfemizmlar lingvistik hodisa sifatida turli tillarning lisoniy tizimida muhim rol o‘ynab, ularning shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy, madaniy hamda psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu fenomen insoniyat tarixining barcha bosqichlarida mavjud bo‘lib, turli xil nutqiy kontekstlarda namoyon bo‘ladi. Tilshunoslikda evfemizmlarning tasnifi va ularning lingvistik hamda pragmatik xususiyatlari keng tadqiq etilmoqda. Ushbu maqolada evfemizmlarning ingliz tilidagi turli tasniflari, ularning semantik va strukturaviy xususiyatlari, shuningdek, boshqa tillardan kirib kelgan o‘zlashmalar bilan bog‘liq masalalar tahlil qilinadi. Evfemizmlarning madaniy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni ham ko‘rib chiqilib, ularning kommunikativ funksiyalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Evfemizm, lingvistik hodisa, til tizimi, og‘zaki nutq, yozma nutq, pragmatika, semantika, ijodiy ifoda, siyosiy nutq, madaniy omillar, ijtimoiy ta’sir, psixolingvistika, tabu so‘zlar, nutq etikasi, o‘zlashma so‘zlar.

Annotation: Euphemisms, as a linguistic phenomenon, play an important role in the linguistic system of different languages, and their formation and development are closely related to social, cultural, and psychological factors. This phenomenon exists at all stages of human history and manifests itself in various speech contexts. In linguistics, the classification of euphemisms and their linguistic and pragmatic features are widely studied. This article analyzes various classifications of euphemisms in English, their semantic and structural features, as well as issues related to borrowings from other languages. The role of euphemisms in cultural and social life is also considered, and their communicative functions are revealed.

Key words: Euphemism, linguistic phenomenon, language system, oral speech, written speech, pragmatics, semantics, creative expression, political speech, cultural factors, social influence, psycholinguistics, taboo words, speech ethics, borrowed words.

Аннотация: Эвфемизмы, как языковое явление, играют важную роль в языковой системе разных языков, а их формирование и развитие тесно связаны с социальными, культурными и психологическими факторами. Это явление существует на всех этапах истории человечества и проявляется в различных речевых контекстах. В лингвистике широко изучается классификация эвфемизмов и их лингвистические и прагматические особенности. В данной статье анализируются различные классификации эвфемизмов в английском языке, их семантические и структурные особенности, а также вопросы, связанные с заимствованиями из других языков. Также рассматривается роль эвфемизмов в культурной и социальной жизни, раскрываются их коммуникативные функции.

Ключевые слова: Эвфемизм, языковое явление, языковая система, устная речь, письменная речь, прагматика, семантика, творческое выражение, политическая речь, культурные факторы, социальное влияние, психолингвистика, табуированные слова, речевая этика, заимствованные слова.

KIRISH

Jamiyatdagi kommunikativ jarayon nafaqat axborot almashinuvi, balki insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy va madaniy aloqalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Madaniy muloqotni ta’minlash, shuningdek, insonlar o‘rtasida hurmat va axloqiy me’yorlarga rioya etish kommunikatsiya jarayonining ajralmas talabi bo‘lib, ushbu jarayonda evfemizmlar muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Evfemizmlar muloqot jarayonini yanada nozik, yumshoq va madaniy shaklga keltirishga yordam berib, ijtimoiy kelishmovchiliklar va muloqotdagi noqulay holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy jihatdan sezgir mavzular, shaxsiy hayot, sog‘liq yoki o‘lim kabi masalalar bevosita ifoda etilganda ba’zan nomaqbul sanaladi va bunday hollarda evfemizmlar lingvistik yumshatuvchi vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, evfemizmlar nafaqat nutq madaniyatining ajralmas elementi, balki ijtimoiy muvozanatni saqlovchi muloqot strategiyasi sifatida ham dolzarb ahamiyatga ega.

METODLAR

Evfemizmlar turli tillar va madaniy kontekstlarda shakllangan bo‘lib, ularning tasnifi har bir jamiyatning ijtimoiy, psixologik hamda lingvistik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Tilshunoslik tadqiqotlarida evfemizmlarning turli tasnif modellarini ishlab chiqish orqali ularning kommunikativ jarayondagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan yondashuvlar mavjud. Evfemizmlar nafaqat nutq madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi, balki insonlar o‘rtasidagi muloqotni yumshoq, samimiy va moslashuvchan qilishga ham ko‘maklashadi. Shuningdek, ushbu til birliklari keskin yoki ijtimoiy jihatdan noqulay mavzularni yumshoqroq ifodalash, shuningdek, jamiyatning axloqiy hamda madaniy qadriyatlarini qo‘llab-quvvatlashda

muhim kommunikativ vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir tilda evfemizmlarning shakllanishi lingvistik, ijtimoiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning tasnifi ushbu mezonlarga asoslanadi. Ayrim tillarda evfemizmlar siyosiy va diplomatik diskursning ajralmas qismi sifatida rivojlangan bo‘lsa, boshqa tillarda ular asosan diniy, axloqiy yoki etiket normalariga moslashgan holda shakllanadi. Globalizatsiya jarayonlari natijasida esa evfemizmlarning qo‘llanilish doirasi kengayib, ularning yangi shakllari turli tillar tizimida paydo bo‘lishiga turtki bermoqda. Quyida muhokama etilayotgan lingvistik tushuncha borasidagi ingliz tilshunos olimlari tomonidan keltirilgan tasniflar bo‘yicha fikr yuritamiz:

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Devid Kristal evfemizmlarni 2 xil ko‘rinishida, ya‘ni tilning og‘zaki va yozma nutqida³⁵⁰ qo‘llanilishini ta‘kidlagan bir paytda, Jon Aljeo esa evfemizmlar insoniyatning baxtli va baxtsiz hodisalari bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar bilan bog‘liqligini qayd etadi³⁵¹. Har qanday millat lisoniy tizimida evfemizmlar ko‘proq og‘zaki nutq vositasi sifatida qo‘llaniladi, yozma nutq shaklida esa asosan biz ushbu til obyektlarini badiiy asarlarda tasviriy ifoda uchun qo‘llanilganining guvohi bo‘lamiz.

Britaniyalik olim Dominik Enrayt evfemizmlarni “**vijdonsiz ifodalar**” sifatida ta‘riflaydi. Uning fikricha, evfemizmlarning maqsadi nutqning asl mohiyatini yashirishdir. So‘zlovchi mavzuga turli xil sxemalar, ishoralar yordamida to‘xtalib, bu orqali haqiqiy mavzu ortga chekinadi. Garchi olim evfemizmlarning salbiy jihatiga to‘xtalgan bo‘lsada, uning ijobiy xislatlarini ham ta‘kidlab o‘tgan, ya‘ni insonlar ba‘zan haqiqatlarni ochiq-oydin bayon etishda ularni (haqiqatlarni) ozorsizlantirish yoki suhbatdoshlar o‘rtasida noqulay vaziyatni keltirib chiqarmaslik uchun andishali mavzularni “pardalash” kabi evfemizmlarning nutqdagi foydali xislatlarini keltirib o‘tgan³⁵².

“Ingliz tili evfemizmlari lug‘ati” muallifi Hyu Rouson evfemizmlarni ikki toifadagi umumiy turlarga- ijobiy va salbiy turlarga ajratadi.

Birinchi turdagi **ijobiy evfemizmlarga** evfemizmlashtirilishi lozim bo‘lgan mavzularni asliga qaraganda muhimroq va ta‘sirchanroq qilib tasvirlanishda muhim ahamiyatga egadir, deya ta‘rif keltirgan. Bu turdagi evfemizmlar **stilistik evfemizmlar** yoxud **mubolag‘ali evfemizmlar** deb ham nomlanadi³⁵³. Bunday turdagi evfemizmlar evfemik hodisani yuzaga keltirayotgan evfemizmlarni muhimroq bayon etilishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, muallif ijobiy evfemizmlarni ba‘zi kasblarning atalishiga nisbatan chiroyli yondashuvda muhim omil ekanligini ham qayd qiladi. Jumladan, olim ingliz tilidagi quyidagi kasblarning evfemizmlarini ijobiy evfemizmlarga misol tariqasida keltirib o‘tgan:

- “eshik og‘asi” (**doorman**)ni “**access controller**”, ya‘ni “kirish-chiqish nazoratchisi”;
- “sotuvchi”(salesclerk)ni “**associate**” ya‘ni “sherik”;

³⁵⁰ Crystal, David. The English Language. London: Penguin UK; 2nd edition (March 1, 2002), p.30, 336.

³⁵¹ John Aljeo. The Origins and Development of the English Language. Boston: Wadsworth, 2005, p.214, 338.

³⁵² Enright, Dominique. 2004. In Other Words. London: Michael O‘Mara Books Limited

³⁵³ Hugh Rawson. Rawson’s dictionary of euphemisms and other doubletalk. New Jersey. Castle books-2002, p 1; 463

- “farrosh”ni (**janitor**)ni “**custodian**” ya’ni “qo‘riqchi”;

(Izoh: janitor so‘zining o‘zi dastlab evfemizm sifatida qo‘llanilgan binolarning tozaligi va isitishiga ma’sul bo‘lgan kasb egalariga nisbatan qo‘llanilgan)³⁵⁴.

-“xizmatkor” (**servant**) ni “**help**” ya’ni “yordamchi” kabi so‘zlar orqali nutqda o‘z aksini topgan.

(Izoh: **servant** so‘zining o‘zi dastlab evfemizm sifatida 19-asrning boshlariga qadar Amerika mustamlakasi davrida zodagonlar tomonidan qo‘llanilgan qora tanli “qul”larga nisbatan foydalanilgan; so‘ngra ba’zi oq tanli “xizmatkorlar” bunday atalashini xohlamasdan, ingliz tilida “servant” evfemizmi muloqotdan chiqarilgan)³⁵⁵

Hyu Rouson ijobiy evfemizmlarning asosan siyosiy, harbiy va tijoratga oid nutqda foydalanilishini ham ta’kidlaydi.

Ikkinchi toifadagi salbiy evfemizmlar ijobiy evfemizmlarning aksi bo‘lib, evfemizatsiya qilingan mavzuning ahamiyatligini kamaytiradi yoki kichraytiradi. Muallif bu turdagi evfemizmlarni tabiatan himoyalovchi sifatida ko‘rib, ular tabulashgan, hamda insonlar to‘g‘ridan to‘g‘ri aytmaslikni afzal biladigan mavzulardan yiroqlashishdir, deya fikr bildirgan³⁵⁶.

Olimning fikriga ko‘ra, salbiy evfemizmlarning qadimiy tarix bilan bog‘liqligi ta’kidlab o‘tilgan. Ya’ni, aynan Xudolarning ismlarini atamaslik; vafot etgan insonlarning ismlarini, ov qilinadigan yoki qo‘rquvga sabab bo‘luvchi hayvonlarning nomlarini atamaslik mana shunday salbiy evfemizlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan, deya e’tirof etadi. Aynan salbiy ma’nodagi evfemizmlarning paydo bo‘lishidagi bosh omil, muloqot jarayonida ta’qiqlangan nom, buyum tilga olinsa uning o‘sha on paydo bo‘lishiga ishonch bo‘lgan. Shu sababdan ham bu turdagi evfemizmlarning yana boshqacha nom bilan, ya’ni *an’anaviy* yoki *tor doiradagi evfemizmlar* deya nomlangan deb e’tirof etadi muallif.

Shuningdek, olim evfemizmlarni ijobiy yoki salbiy bo‘lishidan qat’iy nazar ongli va ongsiz ravishda qo‘llaniladigan toifaga ham to‘xtalib o‘tadi. **Ongsiz** ravishda qo‘llaniladigan evfemizmlarni insoniyat nutqida keng ishlatilib, ba’zan nima sababdan ularning evfemik motivlarini aniqlash mushkul bo‘lib qoladi. Aynan bunga misol tariqasida, ingliz tilidagi “**cemetery**” (aslida yunon tilidan olingan bu so‘z “sleeping place”, ya’ni (uxlaydigan joy) ma’nosini bildirib, ingliz tilidagi “graveyard”, ya’ni (qabriston) so‘zi o‘rnidagi evfemizm sifatida ishlatiladi); bundan tashqari ba’zi muqaddas ismlarning “o‘rinbosarlari” sifatida ko‘pincha yoshlar yoki hazilomuz nutqlarda qo‘llaniladigan “**cripes, Jiminy Cricket, gee, gosh**” kabi Xristian dinidagi Xudoning ismlari evfemiyalashtirilgan. Ammo aynan nima uchun bunday evfemizmlar tanlanganligi noma’lum. Olim ular shunchaki ingliz tilidagi nutqiy muloqatlarda faol tarzda ishlatililib kelishini ta’kidlaydi.

³⁵⁴ Ushbu asar 239-bet; 463

³⁵⁵ Ushbu asar 377-bet; 463

³⁵⁶ Hugh Rawson. Rawson’s dictionary of euphemisms and other doubletalk. New Jersey. Castle books-2002, p 1; 463

Ongsiz tarzda foydalaniladigan evfemizmlarning qarama-qarshisi sifatida ongli tarzda qo‘llaniladigan evfemizmlarni qayd etadi. Bunday turdagi evfemizmlar muloqot jarayonida tinglovchining so‘zlovchiga hamdardligini, hurmatini ko‘rsatish, qolaversa o‘rtadagi madaniyatni saqlash maqsadida maqsadli tarzda qo‘llaniladi. Suhbatdoshning vaziyatiga mos tarzda evfemizmlarning tanlanishi esa insonlardan zukkolikni va gohida ayyorlikni talab etadi. Shuningdek, olim ongli evfemizmlar ham ijtimoiy ikki tomonlama fikrlashga olib kelishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu turdagi evfemizmlar “boshqa narsa” degan ma’noni anglatib, so‘zlovchi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni gohida berkitishga, gohida esa silliqlashga ast qotishini, ammo har doim ham bu turdagi evfemizmlar va evfemistik frazeologizmlar hayotda mavjud bo‘lavermasligini ta’kidlaydi³⁵⁷.

Evfemizmlarning tasniflanishini davom etgan holda, boshqa xorijiy tillardan kirib kelgan o‘zlashma evfemizmlarga izoh keltiradi. Ingliz tilida asosan lotin tili va fransuz tillaridan o‘zlashtirilgan evfemizmlar nutq jarayonida qo‘llanilishini ta’kidlab quyidagi misollarni keltiradi:

- Ingliz tilidagi “*toilet*” so‘zi fransuz tilidagi “*toile*”, ya’ni (cloth- sochiq) so‘zidan evfemizatsiyalangan.

- Lotin tilidan o‘zlashtirilgan evfemizmlar asosan tibbiyotdagi atamalarda uchraydi. Jumladan: *urination, copulation, masturbation*.

Hyu Rouson evfemizmlarning to‘rtinchi guruhiga qisqartirilgan evfemizmlarni: “salbiy ma’no”ni anglatuvchi so‘zlarni va og‘ir kasalliklar bilan bog‘liq evfemizmlarni kiritadi. Buning boisi, muloqot davomida bemorlarning ta’qiqlangan kasallik nomini tilga olmaslik va ularning dilini og‘ritmaslikdir. Masalan, quyidagi qisqartmalar: “**Big C**” (cancer-rak)ni, “**BD**” (bondage and discipline-qullik va intizom)ni anglatadi³⁵⁸.

Shuningdek, evfemizmlarning klassifikatsiyasi borasida bir qancha inglizzabon olimlar Ellan, Devid Kristal, Enrayt, Holder, Keyt Bo‘ridjlarning ilmiy qarashlariga ko‘ra semantik jihatidan quyidagicha 8 xil kategoriyaga bo‘linadi:

- Din bilan bog‘liq evfemizmlar;
- O‘lim bilan bog‘liq evfemizmlar;
- Kasbga doir evfemizmlar;
- Kasalliklar va tibbiyotga oid evfemizmlar;
- Jinoyat bilan bog‘liq evfemizmlar;
- Siyosiy evfemizmlar;
- Iqtisodga oid evfemizmlar;
- Inson tanasi va jinsiy aloqaga oid evfemizmlar;

Beatris Uorren evfemizmlarning semantik klassifikatsiyasi bilan birga struktura jixatdan ham tasniflaydi. Olima evfemizmlarni strukraviy tomondan aynan ushbu konseptning so‘z

³⁵⁷ Hugh Rawson. Rawson’s dictionary of euphemisms and other doubletalk. New Jersey. Castle books-2002, p 3; 463

³⁵⁸ Hugh Rawson. Rawson’s dictionary of euphemisms and other doubletalk. New Jersey. Castle books-2002, p 7; 463

yaratish usullari; fonemik modifikatsiya; o‘zlashma so‘zlar kabi 3 asosiy guruhlarga ajratadi. Ushbu uch guruhlar o‘z navbatida kichik guruhlarga ajratiladi:

•So‘z yaratish usullari:

1. Qo‘shma so‘zlardan hosil bo‘ladigan evfemizmlar;
2. Derivatsiya (so‘zlarning kelib chiqishi)ga oid evfemizmlar;
3. Aralash evfemizmlar;
4. Akronim evfemizmlar;
5. Onomotopik (taqlidiy so‘z yoki tovush) evfemizmlar;

•Fonemik modifikatsiya:

1. Qora sleng (jargon): So‘zlarning aniq tilga olinmasligi va ravshan tarzda eslatilmasligi uchun teskari tarzda qo‘llaniladigan evfemizmlardir.

2. Qofiyali sleng (jargon): So‘zlarning asosiy ma‘nosini “yarim yashirib turuvchi” evfemizmlardir.

3. Fonemik almashtirish: Uyatli yoki haqoratli hisoblangan so‘zlarning ayrim harflarini tushirish yoki almashtiruvchi evfemizmlardir.

4. Qisqartmali evfemizmlar.

•O‘zlashma so‘zlar:

Ingliz tilidagi o‘zlashma evfemizmlar asosan lotin tili, fransuz tillaridan va kam foizli qismini boshqa tillardan o‘zlashtirilgan evfemizmlarni tashkil etadi³⁵⁹.

- “Evfemizmlar” kitobining muallifi Joun Eyto esa evfemizmlarni ikki guruhga, ya‘ni so‘z bilan ifodalanuvchi va imo-ishoralar bilan ifodalanuvchi turlarga bo‘ladi. Muallifning fikricha ba‘zan biror bir xijolatli vaziyatni ifoda etishda tana a‘zolarimizni ishtirokidagi ishoralardan ifodalaymiz: Jumladan, muallif quyidagi misolni keltirib o‘tgan:

- “Would you like to go to the, er..., before dinner?”, the pause filled by perhaps a muffled cough or a furtive glance upstairs, can be readily interpreted as an invitation to visit the lavatory.

- (Ma‘nosi: Kechki ovqatdan oldin,... ga borasizmi?, Ehtimol, ushbu gapdagi pauza bo‘g‘iq yo‘tal yoki tepaga yashirin nigoh bilan hojatxonaga borish taklifi sifatida talqin qilish mumkin)³⁶⁰.

Darhaqiqat, muallif ta‘kidlaganidek, kundalik muloqotimizda ishoraviy evfemizmlardan ham qo‘llanilishiga duch kelamiz. O‘zbek tilida ham hojatxonaga borishni yoshlar o‘rtasida “kichik barmoq”ni ko‘rsatish ila ifodalanadi. Bu ham millatlar o‘rtasidagi evfemizmlarning ishlatilishdagi kichik farqlardan biri hisoblanadi.

XULOSA

Evfemizmlar tabiatan inson nutqining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ularning shakllanishi va qo‘llanilishi lingvistik, ijtimoiy hamda madaniy omillar bilan bevosita bog‘liqdir. Evfemizmlar tarixiy va zamonaviy kontekstda o‘zining kommunikativ funksiyasini saqlab

³⁵⁹ Warren, B. 1992 What euphemisms tell us about the interpretation of words. *Studia Linguistica* 46/2.

³⁶⁰ John Eyto. *Euphemisms. Over 3000 ways to avoid being rude or giving offence.* Bloomsbury, 1993, p.2, 332

qolgan bo‘lib, ular insonlar o‘rtasidagi muloqotni soddalashtirish, ijtimoiy jihatdan nozik mavzularni yumshoqroq ifodalash hamda madaniy me‘yorlarga moslashish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Xorijiy tillardan kirib kelgan evfemizmlar, qisqartmalar va turli ekspressiv ifoda shakllari ushbu lingvistik hodisaning semantik ko‘lamini yanada kengaytirib, uning qo‘llanilish doirasini oshirmoqda. Tadqiqot natijalari evfemizmlarning nafaqat lingvistik fenomen sifatida, balki psixologik va ijtimoiy jarayonlar bilan ham uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, evfemizmlar tilshunoslikda muhim tadqiqot obyekti bo‘lib, ular nafaqat til tizimining tarkibiy tuzilishiga, balki madaniy hamda kommunikativ jarayonlarga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Kelajakdagi tadqiqotlar evfemizmlarning turli tillardagi qo‘llanilish xususiyatlarini yanada kengroq tahlil qilishga hamda ularning ijtimoiy-madaniy funksiyalarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Crystal, David. The English Language. London: Penguin UK; 2nd edition (March 1, 2002), p.30, 336.
2. John Aljeo. The Origins and Development of the English Language. Boston: Wadsworth, 2005, p.214, 338.
3. Enright, Dominique. 2004. In Other Words. London: Michael O’Mara Books Limited
4. Hugh Rawson. Rawson’s dictionary of euphemisms and other doubletalk. New Jersey. Castle books-2002, p 1; 463
5. Warren, B. 1992 What euphemisms tell us about the interpretation of words. Studia Linguistica 46/2.
6. John Eyto. Euphemisms. Over 3000 ways to avoid being rude or giving offence. Bloomsbury, 1993, p.2, 332
7. Victoria Fromkin, Robert Rodman, Nina Hyams. An introduction to Language. Wadsworth, Cengage Learning, Canada 2011, p 472, 619
8. 38. Kate Burridge. Euphemism and Language Change: The Sixth and Seventh Ages. Lexis Journal in English Lexicology. Electronic version. 7/2012. p/67.92.
9. Bakhriddinova Dildora Oktamovna : “THE ART OF USING WORDS IN SPEECH CULTURE” Journal of Hunan University (Natural Sciences) Vol. 48. No. 8. August 2021, China, p. 198-203.
10. Bakhriddinova Dildora Oktamovna : “THE NEEDS OF USING EUPHEMISMS”. Scientific-methodical journal “Mental Enlightenment”, Volume 2021, Issue 06.p. 55-64